QASHQADARYO VILOYATI YAKKABOG‘ TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 8-avgust | 309-4-68-Q/24 | Yakkabog‘ tuman hokimligi

“Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfini oldini olish chora- tadbirlari to‘g‘risida”

2024-yilda Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in kelib chiqishining hamda tabiatga va o‘simlik dunyosiga zarar yetkazilishi oldini olish maqsadida, Yakkabog‘ ixtisoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligining 2024-yil 24-martdagi 148-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi Qonuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 22-noyabrdagi “Respublika o‘rmonlarini himoya qilish bo‘yicha ayrim me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 506-sonli qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to‘plami, 1999-yil 11-son, 68-modda) hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. 2024-yilning yoz, kuz fasllarida davlat o‘rmon fondi yerlarida va qo‘shni fermer xo‘jaliklari hamda fuqarolar yig‘inlari hududida joylashgan o‘rmonlarda tamaki mahsulotlari chekish, ov qilish hamda gulxan yoqish qat’iyan man qilinadi.

2. Yakkabog‘ davlat ixtisoslashgan o‘rmon xo‘jaligi bo‘limlarida favqulodda holatlarda yong‘inni o‘chirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Yakkabog‘ davlat ixtisoslashgan o‘rmon xo‘jaligi (T.Nurmatov) Qizilsuv, Toshqo‘rg’on, Qo’shtol, Chuyanli, Langar, Kenguzar, Dara o‘rmon bo‘limlari boshliqlari (G’.Ziyadullayev, I.Nazarov, S.Amanov, A.Toshpo‘latov, S.Toshpo‘latov, I.Shodiyev, Sh.Muhammadiyev), “Tatar” MFY (S.Almardanov). “Ishkent” MFY (B.Ermatov), “Xonaqa” MFY (N.Bozorov), “Daryo” MFY (S.Normurodov), “Kenguzar” MFY (N.Xudoyberdiyev) raislari yong‘in xavfini oldini olish uchun barcha tashviqot tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo‘yilsin.

4. Yakkabog‘ davlat ixtisoslashgan o‘rmon xo‘jaligi (T.Nurmatov), tuman FVB YOXB (Sh.Qobilov), tuman Tibbiyot birlashmasi (S.Jurayev) “O‘ztelekom” AK Yakkabog‘ tuman filiali (A.Raximov), Qizilsuv, Toshqo‘rg‘on, Qo‘shtol, Chuyanli, Langar, Kenguzar, Dara (G’.Ziyadullayev, I.Nazarov, S.Amanov S.Toshpo‘latov I.Shodiyev, A.Toshpo‘latov, A.Muhammadiyev) o‘rmon xo‘jaligi bo‘limlari, “Tatar”, “Ishkent”, “Xonaqa”, “Kenguzar”, “Daryo”, (S.Almardanov, B.Ermatov, N.Bozorov, A.Xudoyberdiyev S.Normurodov) MFYlari raislari birgalikda, davlat o‘rmon fondida yong‘in sodir bo‘lsa, kechiktirmasdan tezda yong‘inni o‘chirish uchun yetarli odamlarni jalb qilish va ularni asbob-uskunalar, transport vositalari hamda oziq-ovqat

bilan ta’minlash va tez tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

5. Yakkabog‘ davlat ixtisoslashgan o‘rmon xo‘jaligi (T.Nurmatov), tuman tabiatni muhofaza qilish bo‘limi (A.Qo‘yliyev), “Tatar”, “Ishkent”, “Xonaqa”, “Kenguzar”, “Daryo” (S.Almardanov, B.Ermatov, N.Bozorov, N.Xudoyberdiyev, A.Normurodov) MFYlari raislari birgalikda o‘rmon xo‘jaligi yer fondiga yaqin aholi punktlarida, o‘rmon fondi yerlarida yong‘inni oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish hamda o‘rmonchilikka oid qonunlarni buzgan shaxslarga nisbatan tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, tegishli organlarga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2023-yil 19-iyundagi “Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfini oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 157-4-68-Q/23-sonli qarori kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

7. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirishi belgilansin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari U.Nurmanov zimmasiga yuklatilsin.

Yakkabog` tuman hokimi **L.J.ABDULLAYEV**

Yakkabog‘ tuman hokimining
2024-yil 8-avgustdagi
309-4-68-Q/24-son qaroriga
1-ilova

2024-yil Yakkabog‘ ixtisoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligining Qizilsuv, Toshqo‘rg‘on, Chuyanli, Langar, Kenguzar, Dara o‘rmon bo‘limlarida favqulotda vaziyatlarda yong‘inni o‘chirish

REJASI

№ Yakkabog‘ tumani	Joylashgan aholi		Yong‘inga qarshi o‘chirish asboblari			O‘rmon bo‘limlarining nomi	Texnikalar soni	Shundan suv tashish mashinasi
	jami	Shundan yong‘in o‘chirishga qatnashadi	bolta	arra	belkurak			
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*
Tatar MYF	300	200	20	100	80	Qizilsuv	6	1
Ishkent MFY	250	180	10	30	40	Qo‘shtol, Chuyanli	5	1
Xonaqa MFY	230	160	15	40	90	Chuyanli	3	1
Daryo MFY	200	150	20	40	60	Langar	4	1
Kenguzar MFY	100	80	10	20	30	Kenguzar	1	1

Yong‘in sodir bo‘lganda kerakli narsalar yuboriladigan joylar	Tibbiy yordam ko‘rsatilishini tashkil etishda javobgar shaxs	Yong‘in bo‘ladigan joylarda aloqani tiklash bo‘yicha javobgar shaxs	O‘rmon bo‘limi boshliqlari F.I.ISH	Yong‘inni o‘chirish bo‘yicha javobgar	Texnika va yong‘in o‘chirish asbob-uskunalarini olish joyi
10	*11*	*12*	*13*	*14*	*15*
Fuqarolar yig‘inlari fermer xo‘jaliklari	Tuman tibbiyot birlashmasi S.Jo‘rayev	Uztelecom yakkabog‘ tuman filiali(A.Raximov)	U.Nazarov S.Toshpo‘latov S.Amanov	O‘rmonni saqlash va ximoya qilish muhandisi	O‘rmon xo‘jaligi, Mahalla va qishloq fuqarolar yig‘inlari,

			I.Shodiyev I.Nazarov A.Noshpo‘latov Sh.Muhammadiyev	O.Eshtursunov	hamda fermer xo‘jaliklari ombori